

AQLIY RIVOJLANISHDA ORQADA QOLGAN BOLALAR

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Defektologiyaga Maxsus pedagogika yoʻnalishi talabasi

Tosheva Kamola Yusuf qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan ishlash kuzda tutilgan. Psixologiyada koʻproq intellektual rivojlanishida koʻproq orqada qolgan bolalar deb yuritiladi. Bu intellektual qobiliyatlari yoshiga nisbatan past boʻlgan, bilim olishda orqada qolgan muloqot qilishda kundalik hayotdagi vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalardir.

Kalit soʻzlar: Debil, Imbetsil, Idiot, pedagogik, psixologik, logopedik, demensiya, patologik, individual, infeksiya va boshqalar.

Aqliy rivojlanish bu bolaning atrof - muhitni idrok etishi, bilimlarni oʻzlashtirishi, va fikrlarni muammolarni hal etish qobiliyatidir. Bunday bolalar aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar deb ataladi. Intellektual rivojlanishining sustligi bu bolalar yangi olgan yoki oʻrgangan bilimlarini oʻzlashtirish tiradilar. Ularni amaliyotda yoki oʻzlarining hayotlarida qoʻllashga qiynaladilar. Ularda nutqdagi cheklovlar soʻz boyligi oz boʻladi va toʻgʻri gap tuzishda va eshitganini tushunishda ularda muammolar seziladi. Ularda ijtimoiy koʻnikmalarning rivojlanmaganligi tufayli oʻz tengdoshlari bilan muloqot qilganda noqulaylik sezadilar. Oʻz fikrini his - tuygʻularini ifoda etishda qiynaladilar. Bunday bolalarni erta aniqlash nazoratda chetda qoldirmaslik va oʻz vaqtida maxsus mutaxassislar logopedlar, psixolog, defektolog, bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalar bolalarni oʻrganish jarayonida Eskirol ularda nutq rivojlanish darajasini oʻziga xosligiga ahamiyat bergan. Uning fikricha, nutqiy nuqson bolaning ruhiy rivojlanish jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Eskirol ikkita olimni oʻz tasnifiga asos qilib oladi: ruhiy faoliyatning oʻz

tasnifiga asos qilib oladi: ruhiy faoliyatning zararlanish darajasi va nutq funksiyaning holatidir. Burnevill Idiot bolalarni o'rganib, bu bolalarda ruhiyati zararlanishining o'rta darajasi ekanligini aniqladi. Bu bolalar bilan maxsus ishlarni olib borish jarayonida ularning rivojlanishida sezilarli darajadagi o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Aqliy faoliyati buzilgan bolalarning klinik ma'lumotlar asta-sekinlik bilan to'langan. Bolalarga talim tarbiya berish maqsadida maktab tarmoqlari kengaytirildi. Umum talim dasturlat ishlab chiqildi. Talim jarayonida qo'yilgan talablarni uddalay olmayotgan bolalar aniqlanib ularni ulgurmovchi o'quvchilari qatoriga qo'shib qo'yildi. Bu bolalarni o'rganishda psixologlar faol ishtirok etadilar.

Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarda bir nechta sabablarini ko'rish mumkin. Masalan irsiy omillar (genetik buzilishlar) homiladorlik va turg'un jarayonidagi asoratlar, o'gir kasalliklar, bosh miya shikastlanishi, psixologik travmalar kabi sabablar kelib chiqadi. Bolalarda oilaning va pedagoglarning qullab quvvatlovi zarur buladi. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar ko'proq jamiyatning etibor va mehriga muhtoj. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan intellektual rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan muloqotda bo'lishda sabir, tushuncha moslashuvchan yondashuv juda muhim ahamiyat kasb etadi. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarga hurmat mexir bilan yondashish kerak. Bolani kamsitmaslik yoki biron bilan solishtirmaslik talab etiladi. Har doim har qanday vaziyatda ham yutuq yoki harakatini ijobiy baholash talab etiladi. Hurmat bilan muloqotda bo'lish bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga yordam beradi. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarda soddalashtirilgan va ravon tilda spzlash kerak boladi. Kerak bo'lsa so'zlarni takrorlash yoki misollar bilan bolaga yetkazib berish kerak boladi. Tushunmay qolgan mavzularni yaxwi o'zlashtirishi uchun sodda usulda tushuntirishga harakat qilish kerak. Ko'proq dars jarayonida vizual dasturlardan foydalanib bolani yanada qiziqtirish, har xil metodikala o'tkazish natijasida bolani chalp qilish va qiziqishini yana oshirishga yordam beradi yanada osonroq uzlashtirishi osonlashadi. Avvalam bor bolalarga sabir toqatlik bilan yondashish mavjud. Bolani tezda tushunishini kutmang xatolarini to'g'irlashda moyillik bilan yondashing tandiq

qilmang. Kundalik hayotdagi tartib va qoidalar bolaning o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi. Bola gapirayotganida uni tinglang va so'zlariga jiddiy yondashing. Unga savollar berish orqali muloqotni rivojlantirish, o'yinlar va harakatlar orqali bolaga o'rgating. Ko'proq bolalar o'yin orqali eslab qolishadi va tez o'zlashtirib oladilar. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarda dedaktik va sensor mashqlar va o'yinlar foydali bo'ladi. Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiririning navbat kutish, salomlashish, kabi oddiy ijtimoiy qoidalarni mashq qiling. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan pedagoglar va ota onalar ko'proq yondashishadi. Ular bilan ishlash juda mashaqqatlidir. Juda katta kuch va e'tibor talab qilinadi. Bolalarda metodik usullarni aytadigan bo'lsak logopedik mashqlar, agar nutqida nuqson bo'lsa, nutq muammolari bo'lsa, psixologik o'yinlar, rasm chizish plastilinla bilan ishlash. Guruhlarda ishlash orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mavjud. Harakatli o'yinlar orqali motorika va etibor ustida ishlash.

Har bir bola bu jamiyatning ertangi kuni uning porloq kelajagidir. Bola dunyoga kelgach tulaqonli rivojlanish huquqi talim tarbiya olish huquqi beriladi. Biroq hayotda aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar ham uchraydi. Ular jamiyatning alohida e'tiborini talab qiladi. Chunki bu bolalar oddiy tengdoshlaridan farqli o'laroq o'qish, fikrlash, muloqot qilish ijtimoiy hayotga moslashish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Aqliy rivojlanishda orqada qolish bu nafaqat shaxs muammo balki ijtimoiy masaladir. Bunday bolalar ko'pinch aalohida yondashuvni sabir toqatni talab qiladilar. Shuning uchun ularning holatiga befarq qarash mumkin emas. Bu bolalar jamiyatda insonparvarlik va tenglik mehri oqibat tushunchalarini kuchaytiradilar. Ularning hayotiy ehtiyojlari davlat, talim tizimi va butun jamiyat tomonidan inobatga olinishi lozim.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda, jumladan, bizning yurtimizda ham aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar, markazlar reabilitatsiya muassasalari tashkil etilgan. Shuningdek inkyuziv talim tizimi orqali ularning oddiy tengdoshlari bilan birga talim olishi yo'lga qo'yilmoqda. Bu jamiyatda teng

imkoniyatlar yaratish sari muhim qadamdir. Shuni unutmaslik kerakki bu bolalarning jamiyatda munosib o‘rin egallashi, o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun bz-ota onalar, pedagogiklar va butun jamiyat birgalikda harakat qilishimiz zarur . Har bir bolaning yuragida umid uchquni bor. Uning yoqish esa bizning qo‘limizda. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarga mehirlar bilan qarashimiz ularni hayotga bo‘lgan umidlarini yanada oshirish umidlarini so‘ndirmasligimiz kerak . Har qanday vaziyatda ham yaxshilik qo‘lini uzatishimiz kerak. Nazoratdan chetda qoldirmaslik va o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilishga yordam berish lozim.

Xulosa

Aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar jamiyatimizning mehirlar sabirlar toqat va etiborga eng ko‘p muhtoj qatlamidir. Ularning har birida yashirin iste’dod , o‘ziga xos dunyoqarash va insoniylik tuyg‘ulari bor. Biz pedagoglar ,ota-onalar jamiyat vakillari sifatida bu bolalarning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ularni jamiyatga moslashtirish va tulaqonli hayot kechirishlariga ko‘maklashishimiz shart. Har bir bola kelajagimiz poydevori , shuning uchun ularning o‘ssishi kamolotiga qo‘shgan har qanday hissa aslida insoniy burchimizdir. Shunda ekan, mehirlar, sabirlar va ilm orqali ular uchun yorqin kelajak sari yo‘l ochishimiz kerak. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bu hayotning o‘ziga xos sinovidir. Ularning rivojlanishida yuzga keldigan muammolar faqat tibbiyot yoki psixologik emas, balki ijtimoiy pedagogik va axloqiy yondashuvlarni ham talab etadi . Ularning ham huquqlari extiyojlari orzulari bor z biz esa ularni tushunishga qo‘llab quvvatlashga harakat qilishimiz kerak.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Po‘latxo‘jayev M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma -T;TDPU-2013
2. Sodiqova Qz. Aripova S.X Shaxmurova G .A. Yosh fiziologiyasiva gegiyenasi .T .Yangi asar avlodi ,2009
3. Mamedov K, Po‘latova, F. Oligofrenopedagogika .T:TDPU1996.